



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 56 sahifa,  
6-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
<a href="#">Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi</a>	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
<a href="#">Omonova Nilufar Parda qizi</a>	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
<a href="#">Xujanova Shaxina Abdullayevna</a>	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari .....	24
<a href="#">Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna</a>	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
<a href="#">Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna</a>	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
<a href="#">Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna</a>	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionallashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
<a href="#">Nuraliyeva Dilshoda Yo'lichiboy qizi</a>	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
<a href="#">V. Sh. Raximov</a>	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni .....	46
<a href="#">Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi</a>	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli .....	51
<a href="#">Vasila Yusupova</a>	



# TARBIYACHI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK DETERMINANTLARINING ROLI

Vasila Yusupova

Xorazm viloyati UrDPI

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarda shaxslilik sifatlarining psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Tarbiyachilarning shaxsiy motivi, emotsional intellekti, kommunikativ kompetentligi va professional roli kabi omillar shaxslilik sifatleri shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy determinantlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarbiyachi, shaxslilik sifati, determinant, maktabgacha ta’lim, motivatsiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetentlik.

**Abstract:** This article analyzes the psychological determinants of personality traits among preschool education teachers. Key factors such as professional motivation, emotional intelligence, communicative competence, and role perception are examined in relation to personality trait formation.

**Key words:** teacher, personality, personality traits, determinant, preschool education, motivation, emotional intelligence, communicative competence.

**Аннотация:** В статье рассматриваются психологические детерминанты личностных качеств воспитателей дошкольных учреждений. В числе ключевых факторов анализируются профессиональная мотивация, эмоциональный интеллект, коммуникативные компетенции и восприятие профессиональной роли в контексте формирования личностных качеств воспитателя.

**Ключевые слова:** воспитатель, личность, личностные качества, детерминанта, дошкольное образование, мотивация, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность.

## KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta’lim bosqichida tarbiyachi shaxsliligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining shaxslilik sifatleri bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachilarda shaxslilik sifatlarining shakllanishi va rivojlanishida qanday psixologik determinantlar, ya’ni belgilovchi omillar mavjudligini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilarning kasbiy malakasi va metodik tayyorgarligi keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, shaxslilik sifatlarining determinantlari masalasi hali ham chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Xususan, tarbiyachining emotsional intellekti, motivatsiyasi, kommunikativ kompetentligi va kasbiy rolining shaxsiy sifatleri shakllanishiga ta’siri yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Mazkur maqola aynan shu ilmiy ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarda shaxslilik sifatlarining psixologik determinantlarini aniqlash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishni maqsad qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Determinant” tushunchasi (lotincha determinare – “belgilash”) shaxsiy sifatlerining shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar majmuasini anglatadi. Psixologiyada determinantlar odatda ichki (biogenetik, emotsional, motivatsion, kognitiv) hamda tashqi (ijtimoiy, madaniy, professional) omillarga ajratiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning shaxslilik sifatleriga quyidagi asosiy psixologik determinantlar samarali ta’sir ko‘rsatadi:

1. **Kasbiy motivatsiya** – faoliyat mazmuni va maqsadiga nisbatan ichki ishonch va intilishdir. Tarbiyachining kasbiy motivatsiyasi uning shaxsiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq. Faoliyatga ijobiy motivatsiya bolalarga mehr, sabr-toqat, mas'uliyat hamda emotsional barqarorlik kabi fazilatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Tashqi motivlar (moddiy rag'bat yoki ijtimoiy maqom) ustun bo'lgan holatlarda esa kasbiy sifatlarni yanada takomillashtirish zarurati yuzaga keladi, bu esa o'z ustida ishlash orqali ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.
2. **Emotsional intellekt** – shaxsning o'z va boshqalarning hissiyotlarini anglash, boshqarish hamda konstruktiv yo'naltirish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha Daniel Goleman (1995) tomonidan keng ommalashtirilgan. Maktabgacha ta'lim muhitida emotsional intellekt tarbiyachiga bolaning his-tuyg'ularini to'g'ri anglash, emotsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatish va turli vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo'lgan tarbiyachilar bolalar bilan muloqotda ijobiy hissiy muhitni shakllantira oladi.
3. **Kommunikativ kompetentlik** – samarali muloqot, empatiya, tinglay bilish, verbal va noverbal ifoda vositalaridan foydalanish qobiliyatlari majmuasidir. Tarbiyachi faoliyatining markazida aynan muloqot jarayoni turadi. Shaxslararo munosabatlar madaniyati tarbiyachining professional samaradorligini belgilovchi muhim determinantlardan biridir. N. X. Lutfullayeva fikricha, kommunikativ kompetentligi rivojlangan tarbiyachilar ijtimoiy moslashuv jarayonini samarali amalga oshiradi hamda bolalarda ijobiy muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.
4. **Kasbiy refleksiya va o'zini anglash** – tarbiyachining o'z faoliyati, shaxsiy fazilatlar va professional rolini tahlil qila olish qobiliyatidir. Bu determinant V. M. Karimova tomonidan "pedagogik o'z-o'zini anglash mexanizmi" sifatida ta'riflangan. Refleksiya darajasi yuqori bo'lgan tarbiyachi o'z faoliyatini muntazam tahlil qiladi, tajribasini boyitadi va kasbiy rivojlanishga intiladi.
5. **Ijtimoiy-psixologik muhit** – pedagogik jamoa ichidagi iqlim, rahbariyatning boshqaruv uslubi hamda ota-onalar bilan hamkorlik darajasini o'z ichiga oladi. Ijobiy muhit shaxsiy sifatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, hamkorlik va o'zaro qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi.

**Shaxsiy sifatlar modeli: tizimli yondashuv.** Zamonaviy psixologiyada tarbiyachi shaxsini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish keng qo'llanilib, unda barcha determinantlar o'zaro bog'liqlikda va yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning shaxslilik sifatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar faoliyati tanlandi. Tadqiqot predmeti esa tarbiyachilarning shaxslilik sifatlariga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar (kasbiy motivatsiya, emotsional intellekt, kommunikativ kompetentlik va refleksiya)dan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar** – ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va tizimlashtirish orqali mavzuga oid nazariy qarashlar o'rganildi;
2. **Empirik metodlar** – kuzatish, suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida tarbiyachilarning kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlari o'rganildi;
3. **Psixodiagnostik metodlar** – emotsional intellekt darajasini aniqlash, motivatsion yo'nalishni baholash hamda kommunikativ kompetentlikni o'lchashga qaratilgan test va savolnomalar qo'llanildi;
4. **Matematik-statistik metodlar** – olingan natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirishda foiz ko'rsatkichlari hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi.

*Birinchi bosqichda* mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilindi va tadqiqot konsepsiyasi ishlab chiqildi.

*Ikkinchi bosqichda* empirik ma'lumotlar yig'ildi, ya'ni tarbiyachilar bilan so'rovnoma va suhbatlar o'tkazildi.

*Uchinchi bosqichda* olingan natijalar tahlil qilinib, psixologik determinantlarning shaxslilik sifatlari shakllanishiga ta'siri aniqlashtirildi.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy motivatsiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan tarbiyachilarda shaxslilik sifatleri ham yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiyligi ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu yondashuvga ko'ra, shaxsning shaxslilik sifatleri quyidagi darajalar orqali shakllanadi:

1. **Biopsixologik daraja** – temperament, nerv tizimi va fiziologik xususiyatlar;
2. **Ijtimoiy-psixologik daraja** – muloqot uslubi, ijtimoiy rollar va me'yorlar;
3. **Kasbiy-determinant daraja** – kasbiy motivatsiya, ixtisoslikka moslik va refleksiya;
4. **Ma'naviy-axloqiy daraja** – qadriyatlar, e'tiqod hamda professional etikaga sodiqlik.

Maktabgacha ta'lim muhitida ushbu tizim "inson – bola – jamoa" o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Har bir determinant mazkur darajalarning muayyan bosqichida faoliyat ko'rsatib, shaxsiy sifatning rivojlanishiga yo'naltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muhitida empatiya tarbiyachiga bolalarning ichki kechinmalarini chuqur anglash, ularni qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Empatik yondashuv orqali tarbiyachi bolalarda ishonch hissini shakllantiradi, bu esa ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda empatiya shunchaki "rahm qilish" emas, balki bolaning ichki dunyosini to'g'ri anglab, unga mos pedagogik yondashuvni tanlay olish qobiliyatidir. Daniel Goleman empatiyani emotsional intellektning markaziy komponenti sifatida e'tirof etib, aynan ushbu sifat ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri ekanini ta'kidlaydi.

Empatiya ikki asosiy darajadan iborat:

### 1. Kognitiv empatiya – bolaning nimani his qilayotganini tushunish qobiliyati

Tarbiyachi bolaning yuz ifodasi, ohangi va xatti-harakatlariga qarab uning hissiy holatini (masalan, qo'rquv, xafalik yoki hayajon) aniqlaydi. Shuningdek, har bir xatti-harakat ortida muayyan sabab mavjudligini anglaydi. Masalan, bolaning shovqin qilishi e'tibor yetishmasligi yoki charchoq belgisi bo'lishi mumkin. Tarbiyachi vaziyatni bolaning nuqtai nazaridan ko'ra olishi orqali yanada asosli pedagogik qarorlar qabul qiladi.

Kognitiv empatiya tarbiyachiga bolani chuqurroq tushunish va unga mos individual yondashuvni tanlash imkonini beradi.

### 2. Bolani diqqat bilan tinglash (so'zini bo'lmaslik)

Bola gapirayotganda uni to'liq eshitish, so'zini bo'lmaslik unda hurmat va qadrlanish hissini shakllantiradi. Bu esa o'zaro ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

#### Hissiyotlarini nomlash.

"Sen xafa bo'layapsan, to'g'rimi?" kabi iboralar orqali tarbiyachi bolaning ichki holatini tushunayotganini bildiradi. Bu yondashuv bolaga o'z hissiyotlarini anglash va ifodalashni o'rgatadi.

#### Ko'z bilan kontakt qilish.

Ko'zga qarab muloqot qilish samimiylik va e'tibor belgisi bo'lib, bola o'zini muhim va qadrlangan his etadi.

#### Yumshoq ohangda gapirish.

Ovoz ohangini balandlatmasdan, muloyim tarzda muloqot qilish bolaning xavfsizlik hissini oshiradi va emotsional barqarorligini ta'minlaydi.

#### Tanqid o'rniga tushuntirish.

Keskin tanqid o'rniga vaziyatni izohlash va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish ijobiy xulq-atvor shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar muntazam qo'llanilganda, tarbiyachi va bola o'rtasida ijobiy emotsional aloqa shakllanadi hamda bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi sezilarli darajada yaxshilanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning shaxslilik sifatlarining shakllanishida psixologik determinantlar muhim o'rin tutadi. Kasbiy motivatsiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan pedagoglarda shaxslilik sifatleri yanada rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash muhitining sifatli tashkil etilishi ham muhim omil hisoblanadi.

Shu sababli, tarbiyachilarning shaxsiy va professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, psixologik treninglar tashkil etish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlarini joriy etish hamda pedagogik jamoalarda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish orqali shaxslilik sifatlarining samarali rivojlanishiga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boris Ananyev. Inson bilish predmeti sifatida. – Moskva: Nauka, 1977.
2. Daniel Goleman. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
3. Daniel Goleman. Working with Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1998.
4. Christina Maslach, Susan E. Jackson. The Measurement of Experienced Burnout. – Journal of Occupational Behavior, 2001.
5. Anatoly Bodalev. Shaxs va muloqot psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1989.
6. V. M. Karimova. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
7. N. X. Lutfullayeva. Pedagogik kommunikatsiya asoslari. – Toshkent, 2015.
8. Irina Zimnyaya. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2000.
9. Alexei Leontiev. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
10. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.